

Date: 23rd October-2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA EKOTURIZMNI MUAMMOLARI VA
YECHIMLARI**

Ilmiy rahbar: **Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li**

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Miraxmedov Mirabror Mirshukur o'g'li

Alfraganus universiteti turizm fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda ekoturizm salohiyati, imkoniyatlari, ekoturizmini rivojlantirish masalalari, ekoparklarning tashkil etilishi, O'zbekiston ekoturizmi jahon miqyosidagi o'rni va shu bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: turizm, ekoturizm, tabiiy resurslar, ecoparklar, ekologik manzillar, Euronews telekanali

Turizm. Turizm dunyo xo'jaligida dinamik rivojlanayotgan tarmoqlaridan biridir. U jahon milliy yalpi mahsulotida samarali o'rin egallaydi, jahon investitsiyalarining 7% ni o'ziga jalb qilgan holda katta miqdorda yangi ishchi o'rinlari yaratishi ko'p mamlakatlarda soliq tushumlarining muhim manbasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning

"O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash choratadbirlari to'g'risida" gi 2016-yil 2-dekabrdagi PF-486-sonli Farmoni mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda tub burilishni, yangi bosqichning zaminini, turizmda istiqbolli islohotlarning sharoitlarini yaratdi. Prezident farmonida: "Mamlakatda turizmi jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatdan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini ekologik turizmni ichki, kirish va drigish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish" belgilangan.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish jarayonlarida ekoturizmni ham turizmning alohida turi sifatida davlat va xalqaro miqyosida yanada rivojlantirishni, bu sohada iqtisodiyotni boyitish bilan birgalikda yangi ish o'rinlarini yaratish muhimligi bilan belgilandi. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish uchun huquqiy asoslar yaratib kelindi.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish Konsepsiyasi ishlab chiqildi. Unda ekoturizmning maqsadi va vazifalari ekoturizmning xalqaro talablari va huquqiyme'yorlari belgilab berildi. Ekoturizm an'anaviy turizmning muhim qismi bo'lib, shakllanishi jihatdan yangi bo'lsada, istiqbolli hisoblanadi. U hozirgi paytda umumiy sayyohlik bozorining 10-20 foizini ishg'ol etgan, o'sish sur'ati esa tobora ortmoqda.

Ekoturizmga nafaqat ma'rifiy-ma'naviy maqsadlarni ko'zlagan holda ekzotik tabiiy hududlarga, ularning hayvonot va o'simlik dunyosiga sayohat, balki ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni hal qilish bilan bir-biriga bog'liq majmualar yig'indisi sifatida ham qarash lozim.



Date: 23rd October-2025

Ekoturizmning maqsadi - hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligini va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishdir. Ekoturizmning maqsadini amalga oshirish uchun «O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi»dagi dastumi keltirish kifoya qiladi. Bu konsepsiyada respublikamizda ekologik turizmni rivojlantirish uchun quyidagi vazifalarni bajarish muhimligi alohida qayd qilingan:

- ❖ ekoturizm industriyasini shakllantirish uchun maxsus qonunlarni ishlab chiqish va ularning huquqiy mexanizmini yaratish;
- ❖ ekoturistik fan, ta'lim va amaliyotning nazariy asoslarini ishlab chiqish;
- ❖ aholining ekologik ongi va madaniyatini ekoturizm orqali o'stirish;
- ❖ ekoturizm yo'nalishidagi ta'lim va tarbiyani yo'lga qo'yish;
- ❖ ekoturizm bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash va qayta tayyorlash, ekoturistik obyektlarni har tomonlama baholash va ularning kadastrini olib borish;
- ❖ ekoturizm monitoringi va istiqbolini olib borishni yo'lga qo'yish;
- ❖ milliy davlat hududlarini ekoturizm bo'yicha rayonlashtirish;
- ❖ davlatlarning va xalqaro jamiyatning ekoturizmga oid taktik reja va strategik dasturlar va tadbirlarini ishlab chiqish;
- ❖ biologik xilma-xillikni saqlash.

2024-yilning 20- noyabr sanasida Toshkent shaharda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vaziri Aziz Abduhakimov "Euronews" telekanali direktorlar kengashi raisi Pedro Vargas Devid bilan uchrashdi. Uchrashuvda yurtimizda ikkita muhim universitet – Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o'zgarishlarini o'rganish universiteti ("Green University") va "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining ochilishi alohida ta'kidlandi. "Euronews" – Yevropaning kunlik 24 soatlik yangiliklar kanali bo'lib, o'zida jahon voqealari videoxronikasi va 30 tildagi audio sharhlarni birlashtirgan. Joriy yilda telekanal O'zbekiston haqida keng ko'lamli axborot kampaniyasini boshlab yubordi, jumladan,

280 martalik translyatsiyadan iborat 5 ta ko'rsatuv, 630 martalik translyatsiyadan iborat reklama roliklari namoyishi bo'lib o'tdi, "Euronews" sayti va ijtimoiy tarmoqlarda maqolalar chop etildi. O'zbekistonda ekoturizm va ekologik tashabbuslar bo'yicha maxsus dasturlar turkumini yaratish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratildi. O'zbekiston tomoni, shuningdek, yosh va faol auditoriyani jalb qilishga yordam beradigan ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar uchun kontent ishlab chiqishni taklif qildi.

Toshkent viloyatining turistik salohiyatini oshirish maqsadida Chimyon-Chorvoq kurort rekreat-siya zonasiga yaqin joyda turistik ahamiyatga ega bo'lgan inshootlar, suv bilan bog'liq bo'lgan obyektlar va madaniy-sog'lomlashtirish binolarini tashkil etish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni imzolanishi va rekreatsiya dam olish zonalarini yaratish tashabbusi bilan chiqilgan loyihalar qo'llab-quvvatlanmoqda. Urgut tumanida joylashgan Qoratepa mahallasida zamonaviy ko'rinishga ega plyaj tashkil etildi. Suv ombori qirg'og'ida joylashgan ushbu rekreatsion zona yovvoyi tabiatning



Date: 23rd October-2025

jozibasini mahalliy aholi va bu yerga tashrif buyurayotgan mehmonlarni mamnun etmoqda. Samarqand viloyati Urgut tumani turizm qishlog'ini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ish-lar olib borilib, uy-mehmonxonalarning shakllan-tirilishi va milliy hunarmandchilik ustaxonalarining ko'paytirilishi uchun turli imtiyozlar berildi. Aholin-ing faoliyatga keng jalb etilishi, yo'l infratuzilmas-ining yaxshilanishi, elektr energiya, mobil aloqala-rining yaxshilanishi borasidagi harakatlar ekologik turizmni mintaqada rivojlantirishda o'z hissasini qo'shmoqda.

Zarafshon tog'larining etaklarida joylashgan Urgut tumani ajoyib geografik joylashuvi sabab go'zal va betakror tabiatga ega. Turfa yovvoyi tabiat ko'rinishlari nafaqat ichki, balki tashqi turizmni rivojlantirishda katta potensialga ega. Ekologik turizmni rivojlantirishda mintaqaning mo'tadil tabiati sohani rivojlantirishda katta imkoniyat yaratadi. Qoratepa suv ombori hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun turli dam olish maskan-lari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohi, xususiy klinikalar va nuroniy maskanlarning bunyod etilishi kabi bu borada anchagina ijobiy o'zgarishlar bo'layotganligini ko'rsatsa-da, xizmat ko'rsatish sohasida kuzatilayotgan kamchiliklar soha rivojiga to'siq bo'lmoqda. Xushmanzara tabiiy resurslar, Tersak turizm qishlog'ining tashkil etilishi, 25ta uy-mehmonxonalarning qurilishi soha faoliyat-ida siljish bo'lishi mo'ljallangan bo'lsa-da, statistik ma'lumotlarga ko'ra uy-mehmonxonalarning atigi 5 tasigina faoliyat yuritayotganligi sohani tashkil etish tizimining tashkil etilmaganligidan dalolat beradi. Fikrimizcha, ekoturizmni tashkil etishda jahon tajribasidan samarali foydalanish orqali turizmni-ing ushbu yo'nalishini hududda manfaatli sohaga aylantirish mumkin. Go'zal tabiatidan tashqari Urgut tumani mehmonlarni o'ziga jalb qiluvchi bir qator manbalarga ega. Misol tariqasida Tes-hiktosh obyekti ko'plab kinomuxlislarni ham bu yerga tashrifini ta'minlashi mumkin. "Apachi" filmi olingan hudud sifatida mehmonlarning qiziqishini orttirishi mumkin.

Kelayotgan mehmonlarning katta qismi Samar-qand shahrining "Konigil" turistik qishlog'i va "Silk Road Samarkand" majmuasida bo'ladilar. Ayniqsa bahor faslida "Navro'z" ayyomining yashilga bur-kangan tabiat qo'ynida tashkil etilishi fikrimizcha, mamlakatimizda ekologik turizmni rivojlantirish, mehmonlarning bizning mamlakatga bo'lgan qiziqishini orttirishda eng samarali strategiyalardan biri sifatida qarash mumkin. Bu milliy taomlar, milliy mahsulotlarimizni targ'ib qilishda ham ahamiyatlidir. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininig 2019-yil 30 sentyabrdagi "Samarqand viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi 828-son qaroriga ko'ra, bobokaloni-miz Amir Temurning o'z davrida yaratgan va dunyoga dong'i ketgan 12ta so'lim bog'lari xaritasini shakllantirish, ularning har birining xususiyatla-rini aniqlash sohani yanada yuksaltirish ishlarida nafaqat tarixchilar, balki ekologlarning qiziqishini birdek oshirmoqda. Viloyatdagi "Alpomish" zavodi o'rnida zamonaviy ko'rinishga ega dam olish va ko'ngilochar turistik markazning bunyod etilishi borasidagi harakatlar jadal davom etib, bu hudud turistlarning sevimli maskanlaridan biri bo'lishi kutilmoqda. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, bugungi kunda Samarqandda turistik infratuzilma obyektlarini ko'paytirish, soha faoliyatini malakali



Date: 23rd October-2025

kadrlar bilan ta'minlash, xizmat turlarini kengaytirish turizm sohasidagi eng dolzarb masalalar sirasiga kiritilgan.

Xulosa

O'zbekiston Respublikasida ekoturizmning rivojlanishi mamlakatning ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy barqaror taraqqiyotiga xizmat qiluvchi muhim yo'nalishlardan biridir. Tabiiy landshaftlarning xilma-xilligi, milliy bog'lar, tog' va cho'l hududlarining o'ziga xos jozibasi, xalqning mehmondo'stligi ekoturizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Biroq olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ekoturizm sohasi hali ham bir qator muammolarga duch kelmoqda. Eng avvalo, infratuzilma va transport tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi, ekologik turizm uchun zarur xizmatlar tarmog'ining sustligi, marketing va axborot siyosatining zamonaviy talablarga javob bermasligi sohaning keng rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Shu bilan birga, qonunchilikdagi kamchiliklar, ekologik me'yorlarni buzish holatlari ham ekoturizmning barqaror shakllanishini cheklamoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi, Ekologik xabamomasi, j. N 6, 2007, Toshkent 8-14-bb
2. R.Xaitov "Ekologik turizm" o'quv qo'llanma. - Toshkent: 2018. -248 b Internet sources
3. <https://www.lex.uz/>
4. <https://gov.uz/oz/news/view/1052>

